



BANKLARINING FOND BOZORIDAGI ISHTIROKINI TA'MINLASHNING NAZARIY JIHATLARI



Bo'riyev Jamshid Parda o'g'li

Markaziy bank Qashqadaryo viloyat bosh boshqarmasi
Kredit tashkilotlarda moliyaviy monitoringni muvofiqlashtirish
va valyuta nazorati bo'limi boshlig'i

Nasirov Ramazon To'xtayevich

Markaziy bank Qashqadaryo viloyat bosh boshqarmasi shuba mudiri

Annotatsiya: Ushbu maqolada banklarning fond bozoridagi ishtirokining nazariy jihatlari tahlil qilinadi. Banklarning fond bozoriga kirishi ularning moliyaviy barqarorligini ta'minlash, resurslarni diversifikatsiya qilish va daromad olish imkoniyatlarini kengaytirish nuqtai nazaridan muhim ahamiyatga ega. Maqolada banklar va fond bozori o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik, banklarning investor sifatida fond bozori ishtirokchisi bo'lishi, shuningdek, fond bozorida kapital jalb qilish va risklarni boshqarish usullari ko'rib chiqiladi. Banklar faoliyatining fond bozoridagi o'ziga xos xususiyatlari hamda bu jarayondagi nazariy yondashuvlar batafsil o'rganiladi.

Kalit so'zlar: Banklar, fond bozori, moliyaviy barqarorlik, kapital bozori, investitsiyalar, risklarni boshqarish, resurslarni diversifikatsiya qilish, bank ishtiroki.

ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ОБЕСПЕЧЕНИЯ УЧАСТИЯ БАНКОВ НА ФОНДОВОМ РЫНКЕ

Аннотация: В статье анализируются теоретические аспекты участия банков на фондовом рынке. Выход банков на фондовый рынок важен с точки зрения обеспечения их финансовой устойчивости, диверсификации ресурсов и расширения возможностей получения доходов. В статье рассматриваются взаимоотношения банков и фондового рынка, роль банков как инвесторов на фондовом рынке, а также методы привлечения капитала и управления рисками на фондовом рынке. Подробно изучены особенности деятельности банков на фондовом рынке и теоретические подходы к этому процессу.

Ключевые слова: Банки, фондовый рынок, финансовая устойчивость, рынок капитала, инвестиции, управление рисками, диверсификация ресурсов, банковское участие.

THEORETICAL ASPECTS OF ENSURING BANKS' PARTICIPATION IN THE STOCK MARKET

Abstract: The article analyzes the theoretical aspects of banks' participation in the stock market. Banks' entry into the stock market is important in terms of ensuring their financial stability, diversifying resources and expanding income generation opportunities.

The article examines the relationship between banks and the stock market, the role of banks as investors in the stock market, as well as methods of raising capital and managing risks in the stock market. The features of banks' activities in the stock market and theoretical approaches to this process are studied in detail.

Keywords: Banks, stock market, financial stability, capital market, investments, risk management, resource diversification, bank participation.

Kirish. Tijorat banklari muhim moliyaviy institut sifatida bo'sh pul mablag'larini ma'lum shartlar asosida jalb qilish orqali iqtisodiyot tarmoqlarini moliyalashtirish, subyektlar o'rtasidagi o'zaro hisob-kitoblarni amalga oshirish, aholi daromadlarini oshirish kabilarda muhim ahamiyat kasb etishi aksariyatimizga ma'lum. Bunda tijorat banklarining fond bozoridagi faoliyatining samarali tashkil etilganligi yuqori keltirilgan jihatlarning to'liq ishlashi muhim hisoblanadi.

Adabiyotlar tahlili. Banklarning fond bozoridagi ishtirokini ta'minlash masalasi bo'yicha xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan turli tadqiqotlar olib borilgan. Xorijiy tadqiqotchilardan Ross N. Dickens va K. Michael Caseylar tijorat banklarining dividend siyosatiga me'yoriy hujjatlar va soliqlarning ta'sirini baholashgan. Ularning tadqiqotlari banklarning dividend siyosati boshqa soha va tarmoqlar sub'ektlarinikidan farq qilishini ko'rsatadi.

L. S. Padalkina depozitlarni kredit muassasalaridagi barcha muddatsiz qo'yilmalar sifatida ta'riflaydi. Uning yondashuvi bank depozitlarining iqtisodiy mohiyatini tushunishda muhim ahamiyatga ega.

Mahalliy tadqiqotlarimizdan Sardorjon Mirzaaliyevich O'rinnov tijorat banklarining dividend siyosatini o'rganib, muntazam dividend siyosatining afzalliklarini tahlil qilgan. U tijorat banklarining fond bozoridagi faol ishtirokini va dividend to'lovleri bo'yicha moliyaviy ma'lumotlarni o'rganib, amaliy tavsiyalar bergen.

Sevara Anvarovna Kamilova esa O'zbekiston Respublikasidagi fond bozori va tijorat banklarining faoliyatini tahlil qilgan. Maqolada banklarning yaratilishi va rivojlanishi tarixi, imtiyozlar va cheklovchi omillar, shuningdek, fond bozoridagi yangi menejment tahlili bayon etilgan.

Yo. Abdullayev va boshqalar "Bank ishi" nomli o'quv qo'llanmada bank tizimi, bank ishi fanining predmeti va obyekti, bank faoliyatidagi tavakkalchiliklarni baholash, kredit berish siyosati, investitsion funksiyalar va bank menejmenti kabi masalalar yoritilgan. Ushbu qo'llanma banklarning fond bozoridagi ishtirokini tushunishda nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

Tijorat banklarining qimmatli qog'ozlar bozoridagi ishtiroki ko'p tomonlamaligi bunga ma'lum darajada sabab bo'lmoqda. Ya'ni banklar bunda qimmatli qog'ozlar emissiyasi orqali kapital jalb qilish, qimmatli qog'ozlarga investitsiya kiritish, vositachilik asosida boshqa emitentlar qimmatli qog'ozlarini joylashtirish orqali fond bozoridagi faolligini oshirishga, moliyaviy resurs va daromadlar tarkibini diversifikatsiyalashga intilmoqda.

O.Lavrushin boshchiligidagi olimlar guruhi tomonidan «tijorat banklarining qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalari doirasida qimmatli qog'ozlar bozorida bank faoliyati turlari, banklarning o'z qimmatli qog'ozlarini muomalaga chiqarishi va joylashtirishi, tijorat banklarining qimmatli qog'ozlarga investitsion qo'yilmalari, davlat

qimmatli qog'ozlariga xizmat ko'rsatish bo'yicha bank operatsiyalari va REPO bitimlari, banklarning qimmatli qog'ozlar bozori professional ishtirokchisi sifatidagi faoliyati kabilarni atroflicha tadqiq qilingan». Bunda tijorat banklarining fond bozoridagi vositachilik faoliyati e'tibordan chetda qolgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Banklarning fond bozoridagi ishtirokini ta'minlashning nazariy jihatlarini o'rganishda bir nechta tadqiqot metodologiyasidan foydalanildi. Nazariy tahlil metodi orqali Banklarning fond bozoridagi ishtiroki bilan bog'liq ilmiy adabiyotlar, maqolalar va hisobotlar o'rganiladi. Mahalliy va xorijiy olimlarning qarashlari tahlil qilinadi. Fond bozorining iqtisodiy mohiyati va tijorat banklari faoliyatiga ta'siri o'rganiladi.

Statistik tahlil metodi yordamida esa O'zbekiston va boshqa davlatlarda banklarning fond bozoridagi ishtirokiga doir statistik ma'lumotlar yig'iladi. Tijorat banklarining fond bozoridagi ulushi va kapital holati bo'yicha tahlillar o'tkaziladi. Banklarning kapital bozori orqali investitsiyalarni jalg qilish mexanizmlari ko'rib chiqiladi. Xorijiy davlatlar tajribasi bilan O'zbekiston tajribasi qiyosiy tahlil qilinadi. Banklarning fond bozorida faoliyat yuritish strategiyalari o'rganiladi. Rivojlangan mamlakatlarda banklarning kapital jalg qilishdagi innovatsion usullari tahlil qilinadi.

Empirik tadqiqot yordamida tijorat banklari vakillari bilan suhbatlar va so'rovnomalar o'tkazish. Banklarning aksiyadorlik kapitali va qimmatli qog'ozlari bo'yicha tahliliy ma'lumotlar yig'ish. Fond bozorining bank tizimiga ta'sirini aniqlash maqsadida real misollar asosida tadqiqot olib borish.

Tijorat banklari fond bozorida emission faoliyat, investitsiya faoliyati va vositachilik faoliyati bilan shug'ullanishlari hamda kapital tarkibini va aktiv operatsiyalar orqali daromadlar tarkibini diversifikatsiyalaydi. Buni 1-jadvalda ko'rish mumkin.

Natija va muhokama. «AQShdagi banklarga aksiyalar yoki korporativ obligatsiyalar kabi yuqori riskli qimmatli qog'ozlarga egalik qilish taqiqlanadi. G'aznachilik qimmatli qog'ozlari esa ularning past riskli va yuqori likvidliligi tufayli sotib olinishiga hech qanday cheklovlar yo'q». AQShda tijorat banklarining qimmatli qog'ozlar bilan bog'liq moliyaviy vositachilik faoliyatiga ham ruxsat berilmagan.

«Banklar o'zları uchun obligatsiyalarni sotib olish bilan bir qatorda ko'pincha asosiy investorlar bo'lishi mumkin bo'lgan investitsiya va pensiya fondlarini boshqarishini ham uchratishimiz mumkin. Agar bank obligatsiyalarni chiqaradigan kompaniyaga kredit ajratgan bo'lsa, u obligatsiyalarni baholashda axborot ustunligiga ega bo'lishi mumkin. Lekin bu insayderlik ma'lumotlarini saqlash bo'yicha majburiyatları bilan bog'liq muammolarni ham keltirib chiqarishi mumkin. Ba'zi mamlakatlarda anderrayting xizmatlari banklar tomonidan emas, balki qimmatli qog'ozlar vositachilari tomonidan ko'rsatilishini ta'kidlash lozim».

SH.Abdullayeva va A.Omonovlar tomonidan banklar chiqargan aksiyalarni ikkilamchi fond bozoridagi oldi-sotdi operatsiyalari yetarlicha emasligiga e'tibor qaratilgan.

M.Sultanovning fikricha «... banklar qimmatli qog'ozlar bozorida aholi pul mablag'larini jalg etishda pay investitsiya fondlari faoliyat turi bilan ham shug'ullanishi mumkin. Pay investitsiya fondlari yuridik shaxs bo'lmasligi sababli tijorat banklari bir xil maqsad (xohish)ga ega omonatchilar (investorlar) mablag'larini bir joy (fond)ga

to'plab, qimmatli qog'ozlar bozorida ularning investitsiya aktivlarini boshqarishda ishchonchli boshqaruvchisi sifatida professional faoliyat yuritishi mumkin». Ushbu jihatlar tijorat banklarining fond bozoridagi ishtirokini kengaytirishga yordam beradi.

SH.Abdullayeva ta'kidlashicha «...bank faoliyatida xususiy va aksiyadorlik mulk shakllarining ustuvorligi, qimmatli qog'ozlar bozorida zamonaviy va rivojlangan muassasalarning mavjudligi, qimmatli qog'ozlarni muomalaga chiqarish va qimmatli qog'ozlar bozori qatnashchilari faoliyatini nazorat qiluvchi qonuniy aktlar va tartiblarining mavjudligi, tijorat banklarining xalqaro investitsion faoliyatini yuritish amaliyotida bo'lgan yuqori sifatli qimmatli qog'ozlar muomalasining amal qilishi, investitsiya faoliyat sohasi va qimmatli qog'ozlar bozori uchun mo'ljallangan yuqori malakali mutaxassislar va tadbirkorlarning mavjudligi, ularni tayyorlash va boshqalar».

X.Tillayev tijorat banklarining qimmatli qog'ozlar bozoridagi faoliyatida inflyatsiya darajasini inobatga olish lozimligiga e'tibor qaratgan. Xususan, «tijorat banklari qimmatli qog'ozlar bozoridagi emitent, investor yoki vositachi sifatidagi ishtirokiga iqtisodiyotdagi inflyatsiya darajasi bevosita ta'sir yukori bulib, banklar qimmatli qog'ozlar bozorida emitent sifatida qatnashganida inflyatsiya darajasini inobatga olishi lozim».

X.Xudoyqulov «O'zbekiston fond bozorida boshqa tarmoqdagi aksiyadorlik jamiyatlari aksiyalarining likvidliliqi past bo'lganligi sababli tijorat banklarining aksiyalarining ulushi yuqoriligiga e'tibor qaratgan».

1-jadval

Tijorat banklari qimmatli qog'ozlar bozoridagi faoliyati yo'nalishlari

Nº	Faoliyat yo'nalishi	Faoliyat vositasi	Faoliyatdan maqsad	Pirovard natija
1.	Emission faoliyat	Aksiya, Korporativ obligatsiya, Depozit sertifikati Yevroobligatsiya Xalqaro aksiya	Ustav kapitalini shakllantirish va oshirib borish hamda qarz kapitali jalb qilish	Moliyaviy resurslar bilan ta'minlanadi
2.	Vositachilik faoliyati	Anderrayer Depozitariy Ishonchli boshqaruvchi Investitsion maslahatchi Kliring Diler Broker	Qo'shimcha faoliyat yo'nalishi sifatida daromad manbasiga ega bo'lish va o'z qimmatli qog'ozlarini joylashtirish tajribasini oshirish	Fond bozori professional ishtirokchisi sifatida daromadga ega bo'linadi va bozor tahlili asosida o'z qimmatli qog'ozlari muomalaga chiqariladi
3.	Investitsion faoliyat	Aksiyalar portfeli Korporativ obligatsiyalar portfeli Davlat qimmatli qog'ozlari portfeli va boshqalar	Aktiv operatsiyalar orqali daromad olish manbalarini diversifikatsiyalash	Kreditdan tashqari investitsion faoliyat bo'yicha daromadga ega bo'linadi.

Tijorat banklarining qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalari doirasida qimmatli qog'ozlar bozorida bank faoliyati turlari, banklarning o'z qimmatli qog'ozlarini muomalaga chiqarishi va joylashtirish maqsadga muvofiq, tijorat banklarining qimmatli qog'ozlarga investitsion qo'yilmalari, davlat qimmatli qog'ozlariga xizmat ko'rsatish bo'yicha bank operatsiyalari, banklarning qimmatli qog'ozlar bozori professional ishtirokchisi sifatidagi faoliyati kengaytirilishi zarur;

ilg'or mamlakatlar banklarining fond bozoridagi ishtiroki yuzasidan xorij tajribalaridan respublikada foydalanish zarur.

Xulosa va takliflar. Banklarning fond bozoridagi ishtirokini ta'minlash – moliyaviy barqarorlikni oshirish va iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Fond bozori banklar uchun muqobil moliyalashtirish manbai bo'lib, kapital jalg qilish va investitsiyalarni kengaytirish imkonini beradi. Banklarning aksiyalar va obligatsiyalar chiqarishi ularning moliyaviy barqarorligini oshirishda muhim rol o'ynaydi. AQSh, Yevropa Ittifoqi va Osiyo mamlakatlarida banklarning fond bozoridagi ishtiroki ancha yuqori bo'lib, ular ko'proq IPO va obligatsiyalar chiqarish orqali kapital jalg qiladi. Xorijiy tajribada banklarning fond bozoriga integratsiyalashuvi yuqori likvidlilik va barqaror rivojlanish omili sifatida qaraladi. O'zbekistonda banklarning fond bozoridagi ishtiroki nisbatan past darajada bo'lib, bu bozor infratuzilmasining rivojlanmaganligi va tartibga soluvchi mexanizmlarning takomillashtirilishi zarurligini ko'rsatadi. Hukumat tomonidan bank sektorining ochiqligini oshirish va aksiyadorlik kapitalini kengaytirishga qaratilgan islohotlar amalga oshirilmoqda.

Banklarning fond bozoridagi ishtirokini oshirish va kapital bozorining rivojlanishini jadallashtirish uchun quyidagi takliflarni keltirib o'tmoqchiman:

Banklarning fond bozorida faol ishtirok etishini rag'batlantirish uchun qonunchilik bazasini yanada takomillashtirish lozim. Qimmatli qog'ozlar bozori orqali banklar tomonidan kapital jalg qilish mexanizmlarini soddallashtirish kerak. Tijorat banklari aksiyalarining fond bozorida joylashuvini kengaytirish zarur. Xususiy investorlarga bank aksiyalarini sotib olish uchun qulay sharoitlar yaratish lozim. Jamiyatda fond bozori va qimmatli qog'ozlar bo'yicha moliyaviy bilimlarni oshirish uchun keng qamrovli ta'lim dasturlari tashkil etish lozim. Potensial investorlar va biznes subyektlarini bank aksiyalariga investitsiya kiritishga jalg qilish mexanizmlarini ishlab chiqish kerak. Banklarning fond bozoridagi ishtirokini oshirish uchun rivojlangan davlatlarning tajribalarini o'rGANISH va moslashtirish kerak. Xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlikni rivojlantirib, kapital bozorini modernizatsiya qilish lozim. Banklar o'z moliyaviy hisobotlarini fond bozorida ochiq e'lon qilishni yo'lga qo'yishi kerak. Investorlarning ishonchini oshirish uchun shaffoflik va korporativ boshqaruv tamoyillariga qat'iy rioya qilish zarur.

Yuqoridagi chora-tadbirlar amalga oshirilishi natijasida O'zbekiston bank tizimi fond bozoriga yanada chuqurroq integratsiyalashadi va iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Abdullayev Yo., Karimov Sh. (2019). Bank ishi. Toshkent: Iqtisodiyot.
2. Qodirov A. (2021). Moliya bozorlari va investitsiyalar. Toshkent: Iqtisod-Moliya.

3. Mishkin F. S. (2020). The Economics of Money, Banking, and Financial Markets. Pearson Education.
4. Fabozzi F. J., Modigliani F. (2018). Capital Markets: Institutions and Instruments. Pearson.
5. O'ktamova, N. N. (2023). O'zbekistonda tijorat banklari emission operatsiyalarining fond bozoriga ta'siri. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va Moliya Vazirligi jurnali.
6. Mirzaaliyevich O'rinnov S. (2022). Bank sektorining fond bozoridagi ishtirokini kengaytirish masalalari. Cyberleninka.
7. Kamilova S. A. (2023). Tijorat banklarining aksiyadorlik kapitali va investitsiya siyosati. OpenScience.

Copyright: © 2025 by the authors. This work is licensed under a Creative Commons Attribution- 4.0 International License (CC - BY 4.0)

